

MAHALLADA MINI FUTBOL MUSOBAQASI TASHKIL ETILDI



MAHALLADA MINI FUTBOL MUSOBAQASI TASHKIL ETILDI

So'x tumani Rovon mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan "Sug'diyona" sport majmuasida mazkur mahallaning yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan mahalladagi yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda Prezidentimizning 2022 yil 19-yanvardagi PQ-92 sonli qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida mini futbol bo'yicha musobaqa tashkil etildi.

Tashkil etilgan mazkur musobaqada mahallaning uyushmagan yoshlaridan tarkib topgan jamoalar qatnashmoqda. Sport musobaqalaridan tashqari mahallada ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilishi ham ko'zda tutilgan, - deya bizga xabar bermoqda mahallaning yoshlar yetakchisi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-04 17:00:37